

O'ZBEK VOKAL MEROSIDA "KATTA ASHULA"NING O'RNI VA RIVOJLANISH TA'RIXI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21251998>

Tursunov Jamshid Abduraimovich

*Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti Musiqa ta'limi kafedrası
katta o'qituvchisi*

Tursunov Xurshid Abduraimovich

*Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti Musiqa ta'limi kafedrası
o'qituvchisi*

Annotatsiya

Maqolada Tadqiqotda Katta ashula janrining Farg'ona vodiysi va boshqa hududlardagi vokal maktablar bilan o'zaro bog'liqligi ko'rsatilib, uning milliy madaniyat va musiqiy an'analardagi o'rni ta'kidlangan. Maqola Katta ashula ijrochiligi, uning tarixiy-madaniy konteksti va zamonaviy avlodga etkazilishi masalalarini ilmiy asosda deb yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

qo'shiq, ashula, maqom, katta ashulalar, cholg'u sozlari, musiqa san'ati, milliy qadriyatlarimiz, ijodiy an'analari.

Аннотация

В статье показана взаимосвязь жанра Катта Ашула с вокальными школами Ферганской долины и других регионов, а также подчеркнута его роль в национальной культуре и музыкальных традициях. Статья рассматривает вопросы исполнения Катта Ашула, его историко-культурный контекст и передачу современному поколению на научной основе.

Ключевые слова

песня, статус, большие песни, музыкальные инструменты, музыкальное искусство, наши национальные ценности, творческие традиции.

Abstract

This article explores the relationship between the Katta Ashula genre and the vocal schools of the Fergana Valley and other regions, highlighting its role in national culture and musical traditions. It examines the performance of Katta Ashula, its historical and cultural context, and its transmission to the modern generation, using a scholarly framework.

Key words

song, status, great songs, musical instruments, musical art, our national values, creative traditions.

Kirish. Bugungi ta'lim jarayonida faqat bilim berish emas, balki insonni komil etib tarbiyalash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Musiqaning sirli dunyosiga

kirgan odam, uning mislsiz ummon ekanligini anglashi muqarrardir. Bu ummon - moziydan sadolanishi, tarix davomida zamon va makon qonuniyatlari negizida shakllanishi, an'analar kamolotida qadr topishi va qadriyatlarga aylanishi, ijodiyot degan ilohiy ne'mat asosida, jonli ravishda rivojlanib borishi bilan xarakterlanadi. Bilamizki, Shashmaqom Mushkilot (cholg'u) va Nasr (ashula) qismlaridan iborat. Nasr bo'limining o'zi ham ikki qismga, birinchi va ikkinchi guruh sho'balarga bo'linishi barchamizga ma'lum. Sarahbor, Talqin, Nasr, Ufarlardan so'ng, Shashmaqom kengayib bordi. Ya'ni ko'pgina bastakorlar hamda sozandalar unga yangi sho'balar kiritib, Shashmaqomning ikkinchi guruh sho'basi yaratilishiga sababchi bo'ldilar. Ma'lumki, aynan birinchi guruh sho'balari asosida Savt va Mo'g'ulchalar nazira sifatida ishlangan. Ya'ni, Savtlar- Nasr sho'balariga, Mo'g'ulchalar- Sarahborlarga nisbatan bastalangan bo'lib, (talqincha, chapandoz, qashqarcha, soqinoma, ufar) kabi shaxobchalardan iborat asarlardir. Ikkalasining ham kuy tuzilmasi murakkab bo'lishiga qaramasdan, o'z tinglovchilariga jozibadorligi, rang- barangligi bilan ma'qul keladi. Savt va Mo'g'ulchalarni yakka tarzda yoki shaxobchalar bilan birin-ketinlikda ham ijro qilsa bo'ladi.

Har bir davr o'zining musiqiy an'analari bilan izohlanishining ham hikmati shundadir. Musiqaning samoviy yoki ilohiy ekanligi qadimiy manbalarda o'z aksini topgan. Insoniyat esa o'z ma'naviyati darajasida o'zining ma'naviy boyliklarini shakllantirib, davrlar osha rivojlantirib kelgan. Bu jarayonda har soha zamonlar evrilishida charxlanib, mukammallashib, yangidan-yangi ijodiy munosabatlar negizida boyib, o'z samarasini namoyon etib kelgan. Musiqa sohasining azaliy qadriyatlardan zamonaviylik mezonlariga bo'lgan jarayonlari faqatgina ohanglarda muhrlangan betakror asarlardangina anglash mumkin. Buning esa ko'lami juda keng, ularni tasavvur ham qilish mushkul. Chunki, har bir xalqning o'z ma'naviyati, ma'rifati, estetikasi bo'lib, hayot degan jarayonda milliy hamda mahoratli omillar bilan sug'orilib kelingan. Buning negizida ikki ulkan tafakkur yo'nalishlari, ya'ni xalq ommaviy musiqasi va tafakkurning individual ijodiy munosabatlarining mahsuli o'rin olgan. Musiqa san'atining azaliy an'analari Sharq xalqlari mada-niyatida shakllanib rivoj topganligi hamda butun bashariyatga ijodiy ta'sir etganligi, fanda o'z ijobatini topgan. Hayot taraqqiyoti jarayonlarida, G'arb madaniyatining o'ziga xos kamol topganligini esa, hozirgi zamori musiqa san'ati ko'lamidan ilg'ab olish mushkul emas. Buning negizida musiqa san'ati va uning ichki unsurlarini professionallik darajada umumlashish bosqichlarini o'tashi, bu jarayonda mutanosib tovush pardalarini uyg'unlashtirish hamda barcha barobar qabul qilishlari kabi mezonlar, umumbashariyat musiqa san'atining go'zal uyg'unlashishiga olib kelganligini e'tirof etish lozimdir. Natijada, musiqa san'ati ijodiyotida G'arb musiqa san'atiga intilish, o'xshatish, madaniyatiga ergashish kabi munosabatlar yuzaga keldi. Har bir xalq o'zining milliy musiqa san'ati bilan birgalikda, ular asoslangan g'arbonsa musiqa ijodiyotini shakllantirdilar. Buni, ilk bosqichlarini taqlidiy munosabat ekanligiga ham shubha yo'q. Lekin zamon va makon, mafkura va siyosat, qolaversa, zamonaviy ijodiy munosabatlar yangi yo'nalish- lami vujudga kelishini ta'minlab beradi. O'zbek xalq musiqa san'ati o'zining milliy jarayonlarida o'ziga xos va mukammal darajada

shakllangan betakror xalq va mumtoz musiqa merosiga ega. XX asrga kelib, bu ijtimoiy hayot so'qmoqlarida va musiqa madaniyatimizda yangi yo'nalish joriy etila boshlandi. Bu ana shu g'arb musiqa madaniyatining negizida musiqa ijodiyotini kamol toptirish edi.

Qayd etish joizki, har qanday musiqa xalq madaniyatining rivojiga xizmat qilsa, albatta amaliyotda o'z ijobatini topadi Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror badiiy uslubi va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy hayotimizda alohida muhim o'rin egallaydi. Asrlar davomida ulug' shoir va olimlar, mohir bastakorlar, hofiz va sozandalarning mashaqqatli mehnati va fidoiyligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat yurtimiz va sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuhrat va e'tibor qozongan. Maqom san'atining gulto'ji bo'lgan "Shashmaqom" YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilgani hamda uning Reprezentativ ro'yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig'idir. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda maqom san'atini o'rganish va rivojlantirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, o'zbek "Shashmaqomi" nota matnlarining nashr etilishi va ularga muvofiq ravishda maqom kuy-qo'shiqlarining magnit lentalariga yozib olinishi ulkan ilmiy-madaniy ahamiyatga ega voqea bo'ldi. Hozirgi kunda yurtimizda Yunus Rajabiy nomidagi Maqom ansambli, hududlarda maqom jamoalari, O'zbekiston davlat konservatoriyasida shu yo'nalishda maxsus kafedra faoliyat ko'rsatayotgani, sohaga oid ilmiy izlanishlar olib borilayotganini qayd etish lozim. Mazkur hofizlar ijodida "Katta ashula" janri alohida o'rin tutgan. U Farg'ona vodiysi musiqiy merosining eng yorqin vakillaridan biri bo'lib, vokal san'ati va ijro mahoratining namunasidir. Shu jihatdan, Madali Hofiz, Bolta Hofiz va Mamatbuva Sattorov ijodining eng yorqin qirralari aynan Katta ashulada namoyon bo'lgan. Misol tariqasida, Farg'ona vodiysi hofizlarining repertuarida keng tarqalgan "Kelibman dargohingga" yoki "Kelsun" kabi ashula namunalari keltiriladi.[1. 37] Shu bilan birga, Xudojimurod Ergashev va Mamatbuva Sattorov ijro etgan "Nechuk berahmu zolimsan" va "Giriftoringni so'rmaysan", Ibrohimjon Isoqov va Musojon Orifjonov ijro qilgan "Evvoy Chorgoh" va "Qalandar" kabi asarlar Katta ashula janrining boyligini tasdiqlaydi.[7. 42] Katta ashulaning shakllanishi Farg'ona vodiysida XII asrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda hududda Islom ta'limoti va diniy ahkomlar to'la shakllangan bo'lib, mahalliy musiqiy madaniyat va vokal ijro an'analari bilan uyg'unlashgan. Shu tariqa, Katta ashula nafaqat vokal mahoratning, balki milliy ma'naviyat va badiiy tafakkurning rivojlanishida muhim vosita sifatida shakllangan. Katta ashula janrining ilk shakllanishi XII asrlarga to'g'ri keladi. Bu xulosaga asoslanishning bir necha tarixiy va madaniy sabablari mavjud. XII asrlarga kelib, Farg'ona vodiysida Islom ta'limoti va diniy ahkomlar to'la shakllangan edi. Shu davrda Burhoniddin Marginoniyning "Muxtasar" va "Hidoya" asarlari xalqqa keng e'lon qilingan bo'lib, ularning mazmuni va metodikasi hududdagi ma'rifiy va badiiy muhitga katta ta'sir ko'rsatgan.[8. 65] Shuningdek, IX-X asrlarda Islom olimlari va hafizlar hududga kirib kelgan, ularning Qur'onni tajvid qoidalari asosida o'qishi mahalliy vokal

an'analariga bevosita ta'sir qilgan. Qur'on tilovati, xususan, o'ziga xos o'qish va ohanglarga asoslangan ijro uslubi, xalq hayotiga singib, hofizlar ijodida qiroat o'tkazish usuli sifatida namoyon bo'lgan.

Adabiyotlar tahlili. Katta ashula, ushbu san'at yo'nalishi patnusaki (patnis) ashula deb ham yuritiladi. Fargona vodiysiga xos bo'lgan o'zbek an'anaviy ashula uslubi, ijro yo'li Fargona-Toshkent maqom yo'llariga uslubiga xosdir. Katta ashula Fargona vodiysida shuningdek Toshkentda va Qozog'istonning Chimkent viloyatlarida ham ijro etiladi. Ushbu ijro uslubi - Katta ashulani 2, 3, 4, 5 ashulachi hofizlar tomonidan hamnafas bo'lib cholg'u jo'rligisiz qo'llariga likobcha yoki patnis ushlagan holda aytiladi. Ushbu ashulalar avji yuqori pardalarda kuylanadi va keng nafasda ijro etiladi. Ushbu ashulalar o'ziga xos murakkab ijro uslubi bilan ajralib turadi. Katta ashula xalq og'zaki ijodining durdonalari hisoblanadi. Juda qadim zamonlardan ijro etilib kelgan marosim qo'shiqlari, mehnat qushlari, marsiya va mavsumiy qo'shiqlari asosida kuylanib ustoz san'atkorlar va bastakorlarning uslubi, ijro maktablari asosida rivojlanib sayqallanib mukammal holda bizni davrimizga etib kelgan. Dastlab ushbu katta ashulalar aruz vaznidagi g'azallar bilan ijro etilgan. Ushbu asarni ijro etish uchun ijrochini diapazoni, ovoz jarangdorligi ochiq ovozda katta avj pardalarda kuylashi alohida ahamiyatga ega. Katta ashula barcha ijrochilar tomonidan boshlanadi. O'rta va daromad bo'limlari bo'lib-bo'lib ijro etiladi. Avj qismi ovozi jarangdor lya, si, do kabi notalarga yetuvchi ijrochi tomonidan ijro etiladi. Katta ashulani maromiga yetkazib ijro etgan ustoz san'atkorlar Farg'ona vodiysida ko'plab yashab ijod etganlar. Barcha katta ashula ijrochilari Ustoz shogird an'anasiga amal qilib kelganlar. Uning o'tmishdagi namunalarida lirik va nasihatga yo'g'rilgan g'azallar bilan bir qatorda diniy, tasavvuf yo'nalishidagi she'rlar ham kuylangan. Navoiy, Lutfiy, Bobur, Mashrab, Xaziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqa ko'plab ulug' mutafakkir shoirlarimizning g'azallari Katta ashula janridan alohida o'rin olgan. Xalq orasida ustoz san'atkorlar Erkaqori Karimov, Mamatbuva Sattorov, Boltaboy Xofiz, Jo'raxon Sultonov, Ma'murjon Uzoqov, O'tanboy Sarimsoqov, Haydarali Hikmatovlar tomonidan "Do'stlar" (Navoiy), "Ko'p erdi", "Yolg'iz", "Adashganman" (Muqimiy), "Oh kim, rahm aylamas" (Furqat), "Bir kelsun", "Ey, dilbari jononim" (Miskin) kabi Katta ashulalar keng tarqalgan. Keyinchalik Habibiy, Chustiy, Kamtar, Charxiy, Sobir Abdulla, Akmal Po'lat, Vosit Sa'dulla, Nasimiy, Erkin Vohidov, O'tkir Rashidlarning ona vatanni ulug'lovchi, tinch hayot va mehnatni ulug'lovchi, madh etuvchi she'rlari ham Katta ashulada janrida kuylandi sevib ijro etildi. Katta ashula ijrochiligida kuylovchi hofizlar badiha uslubidan keng foydalaniladi. Bu esa undagi nutqdosh va ohangdor tuzilmalar, ashulani rang-barang musiqa bezaklari bilan boyitadi, turli avjlar qo'llanishiga olib keladi. Katta ashula ijrochisi an'anaviy "ustoz-shogird" maktabini o'tgan, she'riyat qonunlari va ijrochilik an'analariga tayangan, keng diapazonli, baland ovozga va mahoratga ega bo'lishi lozim.

Tadqiqot vazifalari. Mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy-nazariy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy adabiyotlar yaratish, maqom san'atini radio-televideniye, ommaviy axborot vositalari, Internet tarmog'i orqali mamlakatimizda va chet ellarda targ'ib

etish, maqom ustozlari, soha olimlari va mutaxassislarining, iqtidorli va istiqbolli yosh ijrochilar faoliyatini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash ishlari e'tibordan chetda qolib kelmoqda. Yuqorida zikr etilgan kamchilik va muammolarni bartaraf etish, o'zbek maqom san'atini chuqur o'rganib, o'ziga xos ijro maktablari va an'analarni yangi bosqichda ravnaq toptirish, uning "oltin fondi"ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ'ib qilish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, Fanlar akademiyasi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining davlat muassasasi shaklida O'zbek milliy maqom san'ati markazi (keyingi o'rinlarda - Maqom markazi) faoliyatini tashkil etish haqidagi taklifi ma'qullansin. O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish bo'yicha Respublika komissiyasi tarkibi O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirishga doir chora-tadbirlar dasturi O'zbek milliy maqom san'ati markazining tarkibiy tuzilmasi muvofiq tasdiqlansin. O'zbek milliy maqom san'ati markazining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin: O'zbekistonda maqom san'atini yanada rivojlantirish, bu borada shakllangan ijro va ijodiy maktablari va an'analarni, buyuk bastakorlar, hofiz va sozandalar merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish va qayta tiklash; o'zbek maqom san'ati mumtoz va zamonaviy ijro namunalarining "oltin fondi"ni yaratish xalqimiz, xususan, yosh avlodni maqom san'ati bilan keng tanishtirish orqali ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usi yuksak badiiy-estetik did va tafakkurni kamol toptirish maqom san'ati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish va targ'ib qilish bo'yicha xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish mumtoz musiqa merosimiz namunalarini notaga olish, mavjud yozuvlarni takomillashtirish va amaliyotga joriy etish, maqom san'atining ijtimoiy-tarixiy ildizlari, ilmiy-nazariy negizlari, milliy va umumbashariy qadriyatlar bilan bog'liq jihatlarini yurtimiz olimlari va chet ellik mutaxassislar ishtirokida chuqur o'rganib, yangi ilmiy tadqiqotlar yaratish maqom san'atining ko'p asrlik ijro yo'llarini puxta o'zlashtirib, ularni yangicha usullar bilan boyitib, yosh avlod vakillariga o'rgatib kelayotgan maqomchilar, maqomshunos ilmiy-pedagog olimlar va mutaxassislar, Maqom markazi xodimlari faoliyatini moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash Yurtimizda maqom san'ati bo'yicha xorijiy yetuk ijrochilarning o'zaro tajriba almashuvi, mahorat darslari hamda turli xalqaro maqom anjumanlari va tanlovlarini tashkil etish; respublika hududlarida taniqli maqom ijrochilarining konsertlarini va mahorat darslarini tashkillashtirish maqom san'atini radio-televideniye, ommaviy axborot vositalari va Internet orqali O'zbekiston va chet ellarda keng targ'ib etish lozim. Shu o'rinda aytish joizki, Katta ashula janri O'zbekiston, xususan Farg'ona vodiysi va Marg'ilon musiqiy merosining eng yorqin vakillaridan biri sifatida shakllangan va rivojlangan. XII asrlardan boshlab, diniy ta'limot va madaniy muhitning uyg'unlashuvi, Burhoniddin Marginoniy, Boborahim Mashrab, Muqimiy, Fuqrat va boshqa ustozlarning asarlari, shuningdek Qur'on tilovati va zikir marosimlari Katta ashulaning ilk ko'rinishlarini yaratishda asos bo'lgan. XVII-XVIII asrlardan boshlab, Marg'ilon hofizlari - Madali Hofiz, Bolta Hofiz, Mamatbobo Sattorov va

ularning shogirdlari - janrni yanada boyitib, Katta ashula ijro uslubini mukammallashtirgan. Ularning ijro maktabi uchinchi oktaavaga cho'zilgan "Tik ovoz", badiiy tafakkur va ohang boyligi bilan ajralib turgan. Shu tariqa, hofizlarning shaxsiy mahorati va madaniy-muhit Katta ashula janrining o'ziga xosligi va avloddan-avlodga uzatiladigan an'anaviy boyligini ta'minlagan. Bugungi kunda Marg'ilon hofizlik maktabi va Katta ashula ijro maktabi yosh avlod hofizlari uchun nafaqat ijodiy namuna, balki tarbiyaviy manba sifatida xizmat qilmoqda. Ularning ijro uslubi va badiiy merosi orqali Katta ashula janri milliy vokal madaniyatining ajralmas qismi sifatida saqlanib qolganini ta'kidlash mumkin. Shu bilan birga, bu janr O'zbekistonda xalq musiqasining boyligi, milliy xonandalik an'analari va badiiy tafakkurining rivojlanishida muhim vosita bo'lib qoladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki. Musiqa maktablarida o'quvchilar xalqimizning ko'p asrlik musiqiy an'alarini milliy qadriyatlarimiz qatorida o'rganishlari va ayni chog'da bu an'alarni milliy qadriyatlarimiz qatorida e'zozlashlari zarur. Chunki o'zbek xalqining uzoq o'tmishidan buyon ijod etib, turli vaziyat va davrlarda kuylab kelinayotgan qo'shiq va ashula, maqom, katta ashulalar, cholg'u sozlarini yaqindan o'rganamiz, ulardan ma'naviy bahra olamiz. Shu bilan birga, bu diyorimizning turli go'shalarida yuzaga kelgan mahalliy musiqiy an'alar bilan atroflicha tanishish imkonini beradi. Biz xalq musiqasi ijodini o'rganish bilan birga yana Buxoro shashmaqomlari musiqasi ijodida namunalar ko'rib, qo'shiqlari bilan tanishamiz. Shu tariqa xalqimizning xilma - xil va rang - barang qo'shiq - kuylaridan bahramand bo'lamiz.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sobirov, S. S. (2024). O'zbekiston milliy musiqasi san'ati va rivojlanish tendensiyalari. *Electronic Journal of Actual Problems of Modern Science, Education and Training*, 2024(6), 54-58.
2. Dadayev, Sh. Sh. (2024). O'zbek musiqasi san'ati islohotlari va Shashmaqom. *Word and Art Journal*, 3(4), 36-39.
3. Muminova, M. (2021). Yoshlarni badiiy-estetik rivojlanishida xalq musiqasining o'rni. *Журнал музыки и искусства*, 2(1).
4. Samijonova, R., & Mamadaliyev, A. (2024). Zamonaviy musiqaning bugungi hayotimizdagi o'rni va ta'siri. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 8(2), 198-203.
5. Muxtorova, O., & Umurzoqova, L. (2025). Musiqasi san'ati va uning zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari. *Theoretical Aspects in the Formation of Pedagogical Sciences*, 4(1), 132-133.
6. Rajabov Ishoq Maqom asoslari. (R.Yunusov tahriri ostida). - Toshkent. 1992.